"GLOBAL HEALTH AND MODERN MEDICINE: INNOVATIONS AND PERSPECTIVES"
International Conference titled

Website:https://worldsiencepub.com/index.php/isngcs September edition,2026

REPRODUKTIV FUNKSIYA BUZILISHI XAVFINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI PROGNOSTIK YONDASHUV

Samatova Sayyora Qudratjon qizi
Andion davlat tibbiyot instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22938443

Dolzarbligi. Ferritin, gemoglobin va metabolik ko'rsatkichlarning reproduktiv funksiyaga ta'sirini baholashda mavjud yondashuvlar, qoida tariqasida, yakka ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, ularning kompleks ta'sirini hisobga olmaydi. Bundan tashqari, ferritin o'tkir faza oqsili sifatida tizimli yallig'lanishdan ta'sirlanishi (Sjaarda et al., 2017; Finkelstein et al., 2022) uni izolyatsiya qilingan holda baholashni metodologik jihatdan noto'g'ri qiladi. Shu sababli ko'p omilli, yallig'lanish markerini ham hisobga oluvchi prognostik yondashuv zarurati yuzaga keladi.

Maqsad. Ferritin tanqisligi, metabolik ko'rsatkichlar va SRB asosida reproduktiv yoshdagi ayollarda menstrual funksiya buzilishi xavfini baholovchi ko'p omilli prognostik modelni ishlab chiqish metodologiyasini asoslash.

Material va usullar. 320 nafar ayol ishtirokida yig'ilgan klinik-laborator ma'lumotlar asosida ko'p o'zgaruvchili logistik regressiya usuli qo'llaniladi, mustaqil prediktorlar aniqlanadi. Model sifati ROC/AUC tahlili, sezgirlik va xosxillik ko'rsatkichlari orqali baholanadi, natijalar barqarorligi ichki validatsiya (cross-validation) usulida tekshiriladi. Namuna hajmi EPV=10 tamoyili asosida hisoblangan.

Kutilayotgan natija. Ishlab chiqiladigan model qoniqarli tashxislash aniqligiga (AUC ≥0.75) ega bo'lishi kutiladi, bu uni birlamchi tibbiy-sanitariya bo'g'ini amaliyotida arzon va ommaviy ko'rsatkichlar asosida xavf ostidagi ayollarni erta aniqlash uchun qo'llash imkonini beradi.

Xulosa. Taklif etilayotgan metodologik yondashuv reproduktiv salomatlik sohasida erta diagnostika tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi va boshqa mintaqalarda ham moslashtirilgan holda qo'llanilishi mumkin.

РЕПРОДУКТИВ ФУНКСИЯ БУЗИЛИШИ ХАВФИНИ БАҲОЛАШДА КЎП ОМИЛЛИ ПРОГНОСТИК ЁНДАШУВ

Саматова Сайёра Қудратжон қизи
Андион давлат тиббиёт институти

Долзарблиги. Ферритин, гемоглобин ва метаболик кўрсаткичларнинг репродуктив функцияга таъсирини баҳолашда мавжуд ёндашувлар, қоида тариқасида, якка кўрсаткичларга асосланган бўлиб, уларнинг комплекс таъсирини ҳисобга олмайди. Бундан ташқари, ферритин ўткир фаза оқсили сифатида тизимли яллиғланишдан таъсирланиши (Sjaarda et al., 2017; Finkelstein et al., 2022) уни изоляция қилинган ҳолда баҳолашни методологик жиҳатдан нотўғри қилади. Шу сабабли кўп омилли, яллиғланиш маркерини ҳам ҳисобга олувчи прогностик ёндашув зарурати юзага келади.

Мақсад. Ферритин танқислиги, метаболик кўрсаткичлар ва СРБ асосида репродуктив ёшдаги аёлларда менструал функция бузилиши хавфини баҳоловчи кўп омилли прогностик моделни ишлаб чиқиш методологиясини асослаш.

Материал ва усуллар. 320 нафар аёл иштирокида йиғилган клиник-лаборатор

© 2026lobal Health and Modern Medicine: Innovations and Perspectives. All Rights Reserved.

маълумотлар асосида кўп ўзгарувчили логистик регрессия усули қўлланилади, мустақил предикторлар аниқланади. Модел сифати ROC/AUC таҳлили, сезгирлик ва хосхиллик кўрсаткичлари орқали баҳоланади, натижалар барқарорлиги ички валидация (cross-validation) усулида текширилади. Намуна ҳажми EPV=10 тамойили асосида ҳисобланган.

Кутилаётган натижа. Ишлаб чиқиладиган модел қониқарли ташхислаш аниқлигига (AUC ≥0.75) эга бўлиши кутилади, бу уни бирламчи тиббий-санитария бўғини амалиётида арзон ва оммавий кўрсаткичлар асосида хавф остидаги аёлларни эрта аниқлаш учун қўллаш имконини беради.

Хулоса. Таклиф этилаётган методологик ёндашув репродуктив саломатлик соҳасида эрта диагностика тизимларини такомиллаштиришга хизмат қилади ва бошқа минтақаларда ҳам мослаштирилган ҳолда қўлланилиши мумкин.

© 2026lobal Health and Modern Medicine: Innovations and Perspectives. All Rights Reserved.